



36-Mavzu. Burchaklar. Masofalar. Parallel to‘g‘ri chiziqlar

1. Ikkita to‘g‘ri chiziqning kesishishidan hosil bo‘lgan qo‘shni burchaklarning gradus o‘lchovlari 2:3 nisbatda bo‘lsa, shu burchaklarni toping.




- A) 72° ; 108° B) 60° ; 120° C) 30° ; 150° D) 50° ; 130°
2. Agar qo‘shni burchaklar kattaliklari 13:17 nisbatda bo‘lsa, ulardan kichigini toping.
A) 52° B) 65° C) 78° D) 85°
3. Agar qo‘shni burchaklar kattaliklari 11:19 nisbatda bo‘lsa, ulardan kattasini toping.
A) 104° B) 114° C) 124° D) 144°
4. Burchakning bissektrisasi uning tomoni bilan 15° li burchak tashkil etsa, burchakning o‘zini toping.
A) 45° B) 30° C) 60° D) $7,5^\circ$
5. 52° li burchakning tomoni va bissektrisasi orasidagi burchak necha gradus?
A) 52° B) 38° C) 26° D) 19°
6. Ikki qo‘shni burchak bissektrissalari orasidagi burchakni toping.
A) 90° B) 0° C) 30° D) 45°
7. O nuqtadan OA, OB, OC nurlar shunday chiqarilganki, $\angle AOB = 140^\circ$, $\angle BOC = 60^\circ$ va $\angle AOC = 80^\circ$ ga teng. AOC va BOC burchaklar bissektrisalari orasidagi burchakni toping.
A) 70° B) 80° C) 110° D) 120°

8. Chizmada $\angle 1 + \angle 3 = 50^\circ$ bo'lsa, $\angle 2$ ni toping.




- A) 50° B) 130° C) 25° D) 155°

9. Chizmada $\angle 2 - \angle 1 = 120^\circ$ bo'lsa, $\angle 3$ ni toping.



- A) 30° B) 60° C) 120° D) 150°

10. Chizmada $\angle 2 + \angle 3 + \angle 4 = 9\angle 1$ bo'lsa, $\angle 1$ ni toping.



- A) 20° B) 25° C) 36° D) 40°

11. Soatning minut mili 9 minutda necha gradusga buriladi?

- A) 15° B) 30° C) 25° D) 54°

12. Soatning minut mili 10 minutda necha gradusga buriladi ?

- A) 30° B) 50° C) 120° D) 60°

13. Soatning soat mili ikki soatda necha gradusga buriladi?

- A) 120° B) 90° C) 60° D) 75°

14. Soatning soat mili 14° burilganda minut mili necha gradus burchakka buriladi?

- A) 84° B) 720° C) 360° D) 168°

15. Uzunligi 32 cm bo'lgan kesma 3:5 nisbatda ikki bo'lakka bo'lingan. Har bir bo'lakning uzunligini toping.

- A) 16 cm va 16 cm B) 15 cm va 17 cm C) 14 cm va 18 cm D) 12 cm va 20 cm

16. AB kesmada C nuqta shunday tanlanganki, $AC:BC=2:3$. AC kesmada D nuqta shunday tanlanganki, $AD:DC=3:5$ o'rinli. Agar AB kesma uzunligi 44 bo'lsa, DC kesma uzunligini toping.

- A) 6,6 B) 17,6 C) 11 D) 26,4

17. C nuqta AB kesmani A uchidan boshlab hisoblaganda 4:3 kabi, D nuqta esa AC kesmani A uchidan boshlab hisoblaganda 5:3 kabi nisbatda bo‘ladi. Agar AB kesmaning uzunligi 56 bo‘lsa, DC kesma uzunligini toping.

A) 8 B) 9 C) 12 D) 15


18. K, P va M nuqtalar bir to‘g‘ri chiziqli yotadi. Agar $MK=5,4$ cm, $KP=8$ cm bo‘lsa, MP kesma uzunligini toping.

A) 2,6 cm B) 5,4 cm C) 2,6 cm yoki 13,4 cm D) 13,4 cm

19. C nuqta AB kesmaning o‘rtasi. AC va BC kesmalarda M, N nuqtalar shunday olinganki, $AM:MC=CN:NB$, $AB=18$ ma’lum. MN ni toping.

A) 18 B) 9 C) 12 D) 15

20. Rasmda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra noma’lum D burchakning kattaligini toping. Bu yerda $AE \parallel DF$, $\angle A = 35^\circ$, $\angle B = 65^\circ$, $\angle C = 2\angle D$




A) 15° B) 30° C) 35° D) 38°

21. Ikki parallel to‘g‘ri chiziqni uchinchi to‘g‘ri chiziq bilan kesib o‘tganda hosil bo‘lgan ichki bir tomonli burchaklardan biri ikkinchisidan 14 marta kichik. Shu burchaklardan kichigini toping.


A) 10° B) 30° C) 12° D) 45°

22. $\angle 1$ ni toping.




A) 68° B) 88° C) 92° D) 108°

23. Chizmada $\angle 1=125^\circ$, $\angle 2=132^\circ$, $\angle 4=125^\circ$. $\angle 3$ ni toping.




A) 65° B) 55° C) 45° D) 48°

24. Chizmada $\angle 1 = 72^\circ$, $\angle 2 = 134^\circ$, $\angle 4 = 72^\circ$. $\angle 3$ ni toping.



- A) 72° B) 62° C) 108° D) 118°

25. Chizmadan foydalanib, qaysi to‘g‘ri chiziqlar parallel bo‘lishini aniqlang.



- A) AB va CD B) KL va MN C) AB va KL D) CD va MN


26. Bir nuqtada kesishuvchi 19 ta to‘g‘ri chiziq tekislikni nechta qismga ajratadi?

- A) 19 B) 20 C) 38 D) 40

27. O‘ziga qo‘shni bo‘lgan burchakning $\frac{3}{7}$ qismiga teng burchakni toping .


- A) 54° B) 66° C) 72° D) 42°

28. a va b parallel to‘g‘ri chiziqlar. Rasmdan foydalanib α burchakning qiymatini toping.



- A) 18° B) 24° C) 28° D) aniqlab bo‘lmaydi.

29. Chizmada $d_1 // d_3$ va $d_2 // d_4$ bo‘lsa, $a - b = ?$



- A) 90° B) 80° C) 40° D) 0°


30. Qo‘shni burchaklarning biri ikkinchisining 3 martasidan 20° kam, shu burchaklardan kichigini toping.

- A) 50° B) 80° C) 40° D) 30°

31. Ikki to'g'ri chiziq kesishishidan hosil bo'lgan o'tmas burchak 120° . Shu o'tmas burchakka qo'shni burchaklar yig'indisini toping.


- A) 60° B) 120° C) 90° D) 135°

32. Chizmada $d_1 \parallel d_2$ bo'lsa, quyida keltirilgan bog'lanishlardan qaysi biri to'g'ri?




- A) $c+180^\circ=a-b$ B) $c+180^\circ=a+b$ C) $a+180^\circ=c+b$ D) $a+b+c=180^\circ$

33. Chizmada $d_1 \parallel d_2$, $\frac{a}{b} = \frac{2}{3}$ bo'lsa, $a=?$




- A) 60° B) 82° C) 50° D) 72°

34. Chizmada ikkita vertikal chiziqlar parallel bo'lsa, $x=?$



- A) 80° B) 40° C) 30° D) 10°

35. Rasmda jami nechta turli kesma mavjud?



- A) 4 B) 8 C) 10 D) 15

36. Har qanday uchtasi bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan 20 ta nuqta berilgan. Bu nuqtalar orqali ko'pi bilan nechta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

- A) 190 B) 200 C) 220 D) 380


37. To'rtta to'g'ri chiziq eng ko'pi bilan nechta nuqtada keishishishi mumkin?

- A) 8 B) 7 C) 6 D) 5

38. To'rtta to'g'ri chiziq tekislikni ko'pi bilan nechta qismga ajratishi mumkin?


- A) 9 B) 10 C) 11 D) 12

39. Siniq chiziq rasmda berilgan qonuniyat bo'yicha davom etsa, qaysi nuqtadan o'tadi?



- A) E nuqtadan B) F nuqtadan C) M nuqtadan D) N nuqtadan

40. Siniq chiziq rasmda berilgan qonuniyat bo'yicha davom ettirilsa, qaysi nuqtadan o'tadi?



- A) E nuqtadan B) F nuqtadan C) M nuqtadan D) N nuqtadan

Kalitlar

1.	A	16.	C	31.	B
2.	C	17.	C	32.	B
3.	A	18.	C	33.	B
4.	B	19.	B	34.	D
5.	C	20.	B	35.	C
6.	A	21.	C	36.	A
7.	A	22.	C	37.	C
8.	D	23.	B	38.	C
9.	A	24.	C	39.	B
10.	C	25.	A	40.	B
11.	D	26.	C		
12.	D	27.	A		
13.	C	28.	C		
14.	D	29.	D		
15.	D	30.	A		